




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov

filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;

Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;

Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;

Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;

Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;

Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyligi uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san’ati: tarixiy ildizlari, ijro an’analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursunay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytursunmuly shyg’armalaridagi ‘y ruxani yndestik pen ag’artushlyyq ideyalar	629
40	O‘g‘iloy G‘ANIYEVA, O‘zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO‘MINOVA, O‘zbek bolalar folklorining o‘rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinoz XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O‘zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o‘zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko‘rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o‘rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O‘zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning “Murdalar gapirmaydilar” qissasida yetimlik muammosi ma’naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo‘llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G‘ani Jahongirov va bolalar o‘yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O‘zbek va turk tillarida 771omatic iboralarining o‘rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako‘l shevasining tasniflardagi o‘rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o‘zbek-tojik shevalarini o‘rganilishi	700



XORAZM SHEVASIDA KO'RSATISH OLMOSHLARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

THE FUNCTIONAL-SEMANTIC FEATURES OF DEMONSTRATIVE PRONOUNS IN THE KHOREZM DIALECT

Sevinch QURBONNAZAROVA,

TOSHDO'TAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/RVVI3090

Annotation. *This paper examines the classification of demonstrative pronouns in the Khorezm dialect of the Uzbek language. The study focuses on their semantic, morphological, and functional features, as well as their regional variations. Although demonstrative pronouns have been studied in Uzbek linguistics, their semantic and pragmatic features in regional dialects especially from a comparative perspective have not yet been fully and systematically investigated. This very aspect determines the scientific novelty of the present study.*

Key words: *Khorezm dialect, demonstrative pronouns, classification, dialectology, semantics, pragmatics, regional variation, phonetic change, morphology, speech function.*

O'zbek tilining qadimiy va boy shevalaridan biri hisoblangan Xorazm shevasi o'zining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Ayniqsa, ko'rsatish olmoshlari kabi muhim grammatik birliklarning sheva doirasida o'ziga xos tarzda shakllanishi va qo'llanishi tilning funksional imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Xorazm shevasidagi ko'rsatish olmoshlari hozirgi kungacha yetarlicha tizimli va kompleks tarzda o'rganilmagan. Shu bois, ularni tasniflash, semantik va pragmatik jihatdan tahlil qilish, hamda adabiy til bilan qiyoslash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolaning maqsadi – Xorazm shevasidagi ko'rsatish olmoshlarini lingvistik jihatdan tasniflash, ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash va nutq jarayonidagi funksional rolini ochib berishdan iborat. Tadqiqot davomida tavsifiy, qiyosiy hamda funksional tahlil metodlaridan foydalaniladi.

O'zbek adabiy tilida ko'rsatish olmoshlari nisbatan me'yorlashgan va ichki tizimi tartibga solingan birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Ular nutq jarayonida aniq funksiyani bajarib, predmet yoki hodisaning nutq subyekti va adresatga nisbatan makoniy hamda kommunikativ pozitsiyasini belgilaydi. Bū, šū, öšä, anāv, änä kabi birliklar orqali yaqinlik, uzoqlik va aniqlik darajalari ifodalanadi. Shunga qaramay, o'zbek tilining hududiy ko'rinishlarida, xususan, Qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalarida mazkur birliklar fonetik shakllanishi, morfologik ko'rinishi hamda nutqdagi funksional yuklamasi jihatidan sezilarli tafovutlarni yuzaga chiqaradi. Qipchoq va qarluq tip shevalariga mansub ko'rsatish olmoshlarida ko'pincha, tarixiy qatlam elementlarini saqlab qolganligi bilan xarakterlanadi. Xususan, *bu, bul* aniq konkret tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladigan olmosh qarluq tip shevalarida (Jizzax, Qo'qon, O'sh, Vodil, Toshkent shahri va shahar atrofi shevalarida) *bu, bul* va kontekstda boshqa so'zlar bilan birikib kelganda, *bu, bi, bil* formalarida qo'llanadi. Masalan, *qarl: ul-buliñ bärmi, biläm, bilmäsäkän bijil älädi, bu nimä diganiñ*. Qipchoq tip shevalarda ularning *bu/vul, bo/ol, vo/vol* formalari, Qorabuloq shevasida *bo* formasi bor. Qipchoq tip shevasidagi variantlar Jo'sh shevasiga ham xosdir. *Qipch: bol žigüt, bu dunja, ol žaqında tirädi; voña qara*.

O'g'uz tip shevalarida mazkur olmoshning *vu/vü, xu, ana//inä, avil/anši//aši, iši/inšü//inäši, ibi//imi//inabi, iberä//iberdä//iberdä, mında/imında/imina, bana//banda//berdä, isörä//isördä//isödä//šödä, asör//asörä//asördä, vana//verä//verdä, berä//berdä, avil/avini, aşanda//aşördä, bi jaqda, vi jaqda, formalari ishlatiladi. Qi:zla, gäli:ni iberä äkkänlä, nä: čün vona äkittizlä? Berdä me:manla silari azannan bari joliñiza qarap otiriptila axi. (Qo 'shko 'pir sh)*. Ko'rsatish olmoshlarining funksional xususiyati, ayniqsa, jonli so'zlashuv



nutqida yaqqol namoyon bo'lib, ular orqali faqatgina predmet yoki shaxs ko'rsatilmaydi, balki kommunikativ vaziyatdagi ishtirokchilarning o'zaro munosabati, hurmat darajasi hamda emotsional ohang ham ifodalanadi. Shu jihatdan mazkur olmoshlar tilning "oddiy ishora vositasi"dan chiqib, ijtimoiy ma'no yuklangan pragmatik birligiga aylanadi. Misol uchun, bolalarning onasi ularga *bana gal* (buyoqqa kel), *arjana git* (uyoqqa ket), *arjana vökkil* (uyoqqa yo'qol) deb murojaat qilsa, onaning jaxli chiqib murojaat qilayotganini tushunish mumkin. Odatda, kelinlar ham muloymlik yuzasidan *berä gälin* (buyoqqa keling), *šödä qalın* (shu yerda qoling) deya mulozamat qiladilar. Bu esa, o'z navbatida ilqlikni oshirish bilan bir qatorda buyruqni iltimos shakliga yaqinlashtiradi.

Endi mazkur olmoshlarning yaqinlik va uzoqlikni ifodalovchi tizimi ayniqsa, o'ziga xos bo'lib, u standart adabiy tildagi bu, shu, bu yoqda, u yoqda va u, ana kabi qarama-qarshi ma'no anglatuvchi jihatlari ham mavjud. Masalan, *bi atizdaqi sari gaşirlari hämmäsini terip aşana appar* (bu ekin maydonidagi sariq sabzilarning hammasini terib o'sha yerga olib bor). Keltirilgan misolda qo'llangan ko'rsatish olmoshi Xorazm shevasida distal (uzoqlik) ma'noni ifodalovchi birlik sifatida xizmat qiladi. Bunday qo'llanish faqatgina jismoniy masofani bildirish bilan cheklanmaydi, balki nutqiy jarayonda o'zaro qay darajada uzoqlikni ham aks ettirishi mumkin. Ya'ni, ko'rsatish olmoshi orqali ifodalangan distal munosabat so'zlovchi va adresat o'rtasidagi nisbiy masofani ham semantik jihatdan kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur misolda ishlatilgan birlik Xorazm shevasiga xos bo'lgan deiktik qarama-qarshilik (yaqin-uzoq oppozitsiyasi) tizimining uzoqlik komponentini namoyon etadi. U nutqda predmetni "so'zlovchidan tashqarida", "bevosita kontakt zonasidan uzoqda" sifatida tasvirlash orqali kommunikativ aniqlikni ta'minlaydi. Ko'rsatish olmoshlari nafaqat uzoqlikni, balki so'zlovchiga nisbatan yaqinlikni ham ifodalashda muhim o'rin tutadi. Bunday birliklar nutqda predmet yoki shaxsning so'zlovchi bilan bevosita kontakt zonasida ekanligini ko'rsatish bilan birga, adresatga nisbatan munosabat va yaqinlikni ham ifodalaydi. Masalan, *öjä barsaň, öjdäki qalyan meväläri sāräläp işörä äkkäl, berdä äñän jaxşı jıjdäkän* (uyga borsang, uydagi qolgan mevalarni bu yerga olib kel, bu yerda buving yaxshi yeydi ekan).

Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarning kelishiklar bilan turlanishi, odatda, tushum, jo'nalish, o'rin-payt hamda chiqish kelishiklari bilan iste'molda faol. O'zbek adabiy tilida ushbu kelishiklarning tasnifi ko'rib chiqamiz:

Tushum kelishigi *-ni*; jo'nalish kelishigi *-ga*; o'rin-payt *-da*; hamda chiqish kelishigi *-dan* affisflari bilan ifodalanadi. Endi Xorazm shevasi misolida ushbu kelishik affiksining fonetik variantlarini ko'rib chiqamiz:

Tushum kelishigi: *-i, -ni* shakli; *Qizlari ibänä çaqırınla, gäsınlä bana šördä otıramız* (Qizlarni buyoqqa chaqiringlar, buyoqqa kelsin shu yerda o'tiramiz).

Jo'nalish kelishigi: *-ä//a, -nä//na* shakli; *Imıña qarañla, bayala öjinžıqları oınap jajratıp gıptılä* (Managa bunga qaranglar, bolalar o'yinchoqlarni o'ynab yoyib ketishibti).

O'rin-payt kelishigi: *-dä//da* shakli; *Aşanda bir tödä äriklä dökilip jatıptı terip akkalaryuj* (O'sha yoqda bir qancha o'riklar to'kilib yotibti terib olib kelaqol).

Chiqish kelishigi: *-dän//dan, -nän//nan* shakli; *İminän gitip, ävinnan gälädi* (Bu yoqdan ketib, u yoqdan keladi).

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm shevasidagi ko'rsatish olmoshlari an'anaviy grammatik doiradan chiqarib, ularni jonli nutq asosida qayta talqin qilish imkonini berdi. Ko'rsatish olmoshlari ushbu shevada mustaqil, ichki qonuniyatlarga ega bo'lgan faol qatlamni tashkil etadi. Birinchidan, ko'rsatish olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi adabiy til modelini takrorlash bilangina cheklanmay, Xorazm shevasiga xos fonetik variantlar orqali boyigan va barqarorlashgan tizim sifatida namoyon bo'ldi. Bu holat ularning og'zaki nutqda shakllangan real normativ birliklar ekanligini tasdiqlaydi. Ikkinchidan, olib borilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, yaqinlik va uzoqlikni ifodalovchi shakllar oddiy makoniy qarama-qarshilik darajasidan chiqib, nutqda munosabatni ifodalovchi vositaga aylangan. Ya'ni, bir xil vaziyatda turli ko'rsatish olmoshlarining tanlanishi orqali so'zlovchi adresatga nisbatan yaqinlikni



kuchaytiradi yoki aksincha, masofa yaratadi. Uchinchidan, olmoshning 20 ga yaqin shakllari va fonetik variantlari batafsil yoritib berildi. Shu asosda, mazkur tadqiqot doirasida quyidagi ilmiy xulosa ilgari suriladi: Xorazm shevasida ko‘rsatish olmoshlari kelishik shakllari bilan birgalikda uch qatlamli tizimni hosil qiladi: 1) ishora (makoniy ma‘no); 2) grammatik bog‘lanish; 3) nutqiy munosabatni ifodalash. Aynan uchinchi qatlam ularning funksional salohiyatini kengaytirib, bu birliklarni oddiy olmosh emas, balki muloqotni boshqaruvchi vositalardan biriga aylantiradi. Natijada, ushbu ish Xorazm shevasidagi ko‘rsatish olmoshlarini o‘rganishda yangi yondashuvni ularni jonli nutq, kelishik shakllari va munosabat ifodasi birligida ko‘rib chiqish zarurligini asoslab beradi. Bu esa, nafaqat dialektologiya, balki umumiy tilshunoslik uchun ham muhim ilmiy natija sifatida baholanishi mumkin.

Quyida ko‘rsatish olmoshi shevalar bilan taqqoslab tasnif etildi:

Xorazm, shevasi	Qo‘shko‘pir	Qarnoq shevasi	j-lovchi shevalarda	Adabiy til
ibī//mīnī	bül	bül	bü, bül, bo, vo, vol	bu
ovī, asī	ösä, sü	ösä, sü	ösä, anov	anavi
vī, asī	ü, ül	ü, ül	ü, ül	u
avīnda, (h)ündä	xejlä	xejlä	xanavī//xenejī	ana unda
inābī, imī	mānā sü, mānāsī	mānā sü, mānāsī	mīnāsū, mānāsī	mana bu

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek xalq shevalari morfologiyasi. Sh.Sh.Shoabdurahmonov (mualliflar jamoasi). – Toshkent. Fan, 2007. – B. 89-99.

